

10-mavzu: Oziq-ovqat xavfsizligi va me'yoriy ovqatlantirishning ijtimoiy-tashkiliy asoslari.

Reia:

- 1 Meditsina normalari darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish;
- 2 Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va ozuqaviy qiymati;
- 3 Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga bo'lgan talablar.

Kalit so'zlar: Meditsina normalari, Oziq-ovqat mahsulotlari, Mahsulotlar xavfsizligi, Mahsulotlar sifati, Ozuqaviy qiymat, Mahsulotlarga bo'lgan talab.

Foydalangan adabiyotlar:

Asosiy adabiyotlar

- 1 Abdug'anivev A., Abdug'anivev A.A. Agrar siyosat va oziq-ovqat xavfsizligi - (darslik)- T.: TDIU, 2004. - 304 bet.
- 2 Abdug'anivev A., Abdug'anivev A.A. Oishloq xo'jaligi iqtisodiyoti. Darslik. - T.: O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006 vil. -288 bet.
- 3 Abdug'anivev A., Abdug'anivev A.A. - Qishloq xo'jalik iqtisodiyoti. Darslik. - T.: TDIU, 2004. - 304 bet.

Qo'shimcha adabiyotlar:

- 1 Iqtisodiyotning agrar sektori. T.Jo'rayev, Sh. Allayarov, X.Asatullayev, T. Umarov, Ma'ruzalar matni. -T.: TIM, 2012
- 2 Salomov T. Hamdamov Q.S. Tursunxo'jayev T.L., To'raxo'jayev T.I., Hakomov R.X., O'roqov N.I., Aripov I.M., Jahon qishloq xo'jaligi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. - 128 b.
- 3 Hakimov R. Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti, -T.: MCHJ "RAM-S", - 2007. 367 b.
- 4 Hakimov R., Otaqulov M., Yusupov E., Yusupov M., Agrosanoat majmui iqtisodiyoti. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. - 160 b.
- 5 Salimov T., Hamdamov Q.S., Tursunxo'jayev T. L., To'xtayev T.I., Hakimov R.X., O'roqov N.L., Aripov I.M. Jahon qishloq xo'jaligi. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2004. - 128 b.

Xorijiy adabiyotlar:

- 1 Gail L. Cramer. Clarence W. Jensen. Douglas D. Southgate, Jr. Agricultural Economics and agrobusiness. - New York, 2001. - 519 p.
- 2 Just R.E., N Bockstael. Commodity and resource policies in Agricultural Systems. Springer- Verlag. Berlin Heidelberg 1991
- 3 OECD (2012), Food and Agriculture, OECD Green Growth Studies, OECD Publishing. <http://dx.doi.org/10.1787/9789264107250-en>
- 4 David Colman and Trevor Young, 1989. Principles of Agricultural Economics. Markets and Prices in Less developed countries. Cambridge. Cambridge CB2 1RP, United Kingdom.
- 5 Suresh Chandra Babu. Sandiar Dialolov. 2006. Policy Reforms and Agriculture Development in Central Asia. Springer Science + Business Media, Inc. NY 10013. USA
- 6 Попов Н. А. Экономика сельско хозяйства: Учебник. - М .: Изд-во "Дело и сервис", 2000. - 367 с.
- 7 Серова Е. В. Аграрная экономика: Учебник Для Студентов

- экономических вузов, факультетов и специальностей. -М.: ГУ ВШЭ, 1990. - 480 с.
- 8 Б.А. Кандиус. Экономика агропромышленного комплекса: учебное пособие // Пос. Акад. Наук, Ин-т, Европы. - М.: Памятники исторической мысли, 2011. 284 с. URL:<http://33950.kcv.ru/bsover/0000690287> шм.пдф
 - 9 Ткач А.Б. Сельскохозяйственная кооперация: Учебное Пособие. - 3 - е изд., испр. И доп. - М.: Издателско-торговая корпорация “Дашков И Ко”, 2005. - 364 с. 2 экз.
 - 10 Устойчивое развитие сельского хозяйства И сельских территорий: Зарубежный опыт и проблем России, - М.: Т-во научных изданий КМК. 2005 - 615 с.
 - 11 Бусел И.П. Агробизнес: Учебное пособие - Минск, 2009.

Internet saytlari

- 1 www.samqxi.uz - Samarqand qishloq xo'jalik instituti veb-sahifasi
- 2 www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.
- 3 www.agro.uz - O'zbekiston Respublikasi Qishloq va Suv xo'jaligi vazirligi portali.
- 4 www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi portali
- 5 www.gov.uz - O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali.
- 6 www.fao.org - Birlashgan millatlarning qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat tashkiloti portali.

1 Meditsina normalari darajasida oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanish;

Oziq-ovqat yetishmovchiligi voki oziq-ovqat xavfsizligi darajasi pastligi aholi orasida qoniqarsiz oziqlanishga olib kelib, u o'z navbatida odamlar, oilalar va butun xalq uchun iiddiy oqibatlariga olib keladi. Oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasi aholi ion boshiga oziq-ovqat mahsulotlarining umumqabul qilingan me'vorlarning xudi shunday o'lchovda ularning iste'mol qilingan miqdori bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Jahon statistikasida oziq-ovqat mahsulotlarining aholi ion boshiga hisobi FAO tavsiya etgan me'vorlar qabul qilingan. FAO me'vorlari bo'yicha bu mahsulotlarning bir sutkalik iste'moli 3000 kkal ni tashkil qiladi.

Sog'lom ovqatlanishning me'vorlari milliy va xalqaro maxsus muassasalar, shuningdek Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti (XSST) va Xalqaro oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan ham aniqlanadi. 1953 yilda AOShdan o'rtacha yoshdagi erkak kishining ioziq-ovqat iste'moli me'vori 3200 kkal/sut.ni tashkil qilgan bo'lsa, hozirda bu 2700 kkal/sut.ga teng. Iste'moli 2150 kkal dan kam bo'lganlar ochlik va to'yib ovqat vemaslik arafasida, 1500 kkal va undan kam iste'mol qiluvchilar ochlik holatidagi kishilar toifasidandir.

Faol turmush tarzi olib boruvchi katta yoshdagi kishi enerniyasining ma'lum vaqt oralig'ida sarfi FAO va Xalqaro sog'liqni saqlash tashkiloti ekspertlari quyidagicha aniqlaydilar:

$$E_s = K * M * V_o$$

bu verda:

E_s —organizmning umumiy energetik sarfi, kkal;

K — tana 1 kg massasining energiya sarfi, kkal;

M — tana massasi, kg;

V_o — sutkaning vaqt oralig'i.

Rivojlanishning sekinlashishi bilan kechadigan o'sishning orqada qolishi uzoq muddat yetarli ovqatlanmaslik va /voki sog'liqning zaifligi vig'ilib borishi o'zaro ta'siridan dalolat beradi. Shuningdek, o'sishdan orqada qolish faqat to'yib ovqatlanmaslikning ko'rsatkichi emas, balki inson asosiy ehtiyoilarining qondirilmaganligi va natijada, absolyut qashshoqlikning belgisi ham hisoblanadi.

To'liq bo'lmagan ovqatlanishning besh turi farqlanadi:

1) “to'yib ovqatlanmaslik” - inson yetarli ovqat miqdorini qabul qilmaydi;

2) “balanslashmagan ovqatlanish” (yetarli miqdorda bo'lmagan va/yoki tarkibida kam proteinlar) ovqatlanish sifati organizm ehtiyojiga mos bo'lmagan holat. Balanslashmagan ovqatlanishning asoratlarini o'lchash mumkin, masalan, bolalarda bo'y va vazn o'sishining orqada qolishi, kata yoshdagilarda tana og'irligining past indeksi;

3) ovqatlanishda mikroelementlarning yetishmasligi, «yashirin ochlik»-inson oziq-ovqat bilan birga yetarli miqdorda bir yoki bir necha zarur mikroelementlar, masalan vitamin va/yoki minerallarni olmaslik holati;

4) “ikkilamchi to'yib ovqatlanmaslik”-inson sog'lig'ining ma'lum bir holati yoki boshqa bironbir sabablarga ko'ra ovqatni qabul qila olmaslik yoki hazm qila olmaslik holati;

5) “to'yib ovqatlanish”-inson uzoq vaqt davomida ovqat bilan birga haddan tashqari ko'p kaloriya miqdorini qabul qilgandagi holati.

“Ovqatlanish samarasini” antropometrik o'lchovlar va bioximik tahlillar asosida aniqlash mumkin. Jadvalda ovqatlanish holatining ko'p ishlatiladigan ko'rsatkichlari keltirilgan. Bolalar yoshining o'sishiga muvofiqligining

antropometrik ko'rsatkichlari orqali bolalarning rivojlanib borishi aniqlanadi.

Insoniyatning dehqonchilik va chorvachilik tashkiliy, texnik-texnologik yangiliklarning ijariv etilishi bilan bog'liq bo'lgan ulkan vutuqlarga erishganligiga qaramasdan XXI asrda jahon aholisining oziq-ovqat ta'minoti qoniqarsizligicha qolvafti. Bu holat XXI asrning muammolarini ham belgilab bermoqda. 2000-chi villarda jahon oziq-ovqat muammosining keskinlashuviga sayvoramiz aholisi sonining o'sib boravotganligi bilan (BMT ma'lumotlariga ko'ra 2050 vilda bu ko'rsatkich 9.6 mlrd. kishini tashkil qiladi) tabiiy muhitning imkoniyatlari o'rtasidagi nomutanosibliklar sabab bo'lgan.

Shu boisdan oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash muammosida quyidagi bir nechta muhim jihatni airatib ko'rsatish zarur.

Birinchi jihat shu bilan bog'liki, mamlakat, hududlar, uv xo'ialiklari, oddiy fuqarolarni oziq-ovqatlar bilan ta'minlash muammosi qadim vaqtlardan beri insoniyat oldida turgan, ko'pgina ijtimoiy, sivosiy va iqtisodiy inqirozlar birinchi galda oziq-ovqat vetishmasligi muammosi negizida vuz bergan. Ushbu muammoga har xil zamonlarda va turli qit'alarda alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, oziq-ovqat xavfsizligi borasida muavvan darajaga erishish hamisha umuman jamiyatning va har bir individning asosiy vazifasi bo'lib hisoblangan. Bunda vetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash uchun davlat ASM sohasida ishlab chiqarishni rag'batlantirgan holda muhim rol o'vnashi lozim.

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, taqsimlash va sotish mamlakat aholisi ochlik va to'vib ovqat vemaslikdan aziyat chekvaptimi yoki oziq-ovqat mahsulotlari bilan vetarli darajada voxud ortiqcha miqdorda ta'minlangan ta'minlanmaganligidan qativ nazar har bir mamlakatning faoliyat sohasiga kiritilgan bo'lishi kerak. Insoniyatni to'laqonli va ekologik nuqtai nazardan xavfsiz oziqovqat mahsulotlari bilan ta'minlash-hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridan biridir;

sayvoramiz, davlatimiz va mintaqamizning xotiriamligi esa inson turmush darajasi va umuman sivilisasiyaning muhim sifat ko'rsatkichi hisoblanadi.

Oishloq xo'ialigini qo'llab-quvvatlashning asosiy ko'rsatkichi sifatida tovar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashni baholashdan foydalaniladi. Mazkur uslubiyat iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT) ning a'zolari bo'lgan barcha mamlakatlrga hamda Markaziy va Sharqiy Yevropaning ayrim mamlakatlariga nisbatan qo'llanadi.

Ikkinchi jihat-asosiy turdagi oziq-ovqatlarning aholi uchun ularning qaverda vashashidan qat'iv nazar hammabopligini ta'minlash bilan bog'liq. Bunda jismoniy hammaboplik shuni anglatadiki, kishilarning ehtivojini qondirish uchun vetarli hajmdagi oziq-ovqat mahsulotlari ular iste'mol qilnadigan ioylarga uzluksiz ravishda vetkazib berilishi kerak. Jismoniy hammaboplik vetarli miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va ularning mamlakatlararo hamda mamlakat ichida to'siasiz harakatlanishi bilan bog'liq bo'lgan vazifalar majmuining hal qilinishini taqozo etadi.

Uchinchi jihatdan-oziq-ovqatlarning iqtisodiy hammabopligi. Bu shuni anglatadiki, maviud narxlar darajasida xaridorlar talabining darajasi aholiga har bir kishining salomatligi va faol havot kechirishi uchun rasional iste'mol me'vorlariga mos bo'lgan haim va assortimentdagi asosiy oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish imkoniyatlarini ta'minlashi lozim.

Aholining barcha guruhlari uchun oziq-ovqat mahsulotlarining iqtisodiy hammabopligini oshirish maqsadida aholining qashshoqlik darajasini pasavtirishga, sog'lom ovqatlanish uchun vetarli mablag'ga ega bo'lmagan eng muhtoj qatlamlarni (nogironlar, volg'iz qari-qartanglar va h.k.), shuningdek bolalar, homilador va emizikli avollarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga; ijtimoiy va maxsus davlat sohalari (kasalxona, armiyaning bo'linmaari va

boshqalar) muassasalaridagi shaxslarni oziq-ovqat bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarur.

2 Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi va ozuqaviy qiymati;

Ijtimoiy hammaboplik oziq-ovqat xavfsizligi, xomashyo va oziq-ovqatlarning sifatini nazorat qilish, mahsulotlarning sifatini sertifikasivalash va boshqarish tizimlarini yaratish, aholi salomatligini yaxshilash boshqa masalalarni o'z ichiga oladi.

Uv xo'jaliklari, oilalar darajasida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash uchun oziq-ovqat ishlab chiqarishning o'zi kifoya qilmaydi. Oziq-ovqat xavfsizligining yana bir havotiy muhim belgisi - bu doimiy ravishda kalorivali oziq-ovqat mahsulotlaridan kafolatlangan tarzda foydalanish imkoniyati va bu mahsulotlarni tegishli mablag'lar evaziga xarid qilish imkoniyati bilan bog'liq. Uv xo'jaliklari darajasida oziq-ovqat bilan ta'minlanganligini oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanishda kambag'allikning oziq-ovqat iste'moli chegarasi baholanadi, aholining undan yuqorida va quvida taqsimlanishini belgilashda foydalaniladi. Bunda alohida e'tibor kambag'allikning oziq-ovqat chegarasidan quvida bo'lgan uv xo'jaliklarining demografik xususiyatlariga qaratiladi (va'ni, vetarli miqdorda oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qila olmaydiganlar). Turli guruhlarga mansub shaxslar tomonidan iste'mol qilinadigan odatdagi rasionni asosiy oziq-ovqat mahsulotlari, shu jumladan, oqsil va yog'larga boyligi nuqtai nazaridan ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Ovqatlanish aholi sog'lig'ini belgilaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi. Sog'lom ovqatlanish-bu insonning sog'lig'i mustahkamlanishiga va kasalliklar kamavishiga ko'maklashadigan, uning o'sishini, normal kamol topishini va havot faolivatini ta'minlaydigan ovqatlanish. Ovqatlanish tuzilmasida balansning har qanday buzilishi inson sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shuningdek turmush sifati pasayishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida oziq-ovqat sanoati rivoilanishining tadriiy o'sishini ta'minlashga va mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni ko'paytirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Aholining daromadlari ham sezilarli ravishda o'sdi, uning xarajatlari tarkibi sifat jihatdan o'zgardi, oziq-ovqat mahsulotlariga sarf-xarajatlar ulushi kamayib, nooziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlarga xarajatlar ulushi oshdi (9.2-jadval). Buning hisobiga keyingi yillarda aholining ovqatlanishi sifati ancha yaxshilandi, oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish tuzilmasi o'zgardi, ion boshiga go'sht va go'sht mahsulotlarini iste'mol qilish 1,3 baravar, sut va sut mahsulotlarini iste'mol qilish - 1,6 baravar, tuxum vevish - 2,2 baravar, sabzavotlarni iste'mol qilish - 2,6 baravar, kartoshkani iste'mol qilish -

1, 7 baravar, mevalarni iste'mol qilish - 4.0 baravar o'sdi.

Ovqatlanish tuzilmasi va rasioni yaxshilanishi boshqa omillar bilan birgalikda aholi sog'lig'i ko'rsatkichlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Oxirgi 10 vilda tanasining og'irligi vengil bo'lgan bolalar ulushi ikki baravardan ortiqqa qisqardi (4 foizdan 1.8 foizgacha), avollarning anemiya (kamqonlik) bilan kasallanishi darajasi 2.5 baravar pasaydi. O'zbekiston aholisining o'rtacha umr ko'rish 6.5 vilga ko'paydi (67 yoshdan 73,5 yoshgacha), ayollarning o'rtacha umr ko'rish - 75,8 yoshga yetdi.

Shu bilan birga, ijobiy iqtisodiy o'zgarishlar va urbanizasiyaning tez o'sishi va unga xos bo'lgan turmush tarzidagi o'zgarishlar barcha iqtisodiy rivoilangan mamlakatlar uchun xos bo'lgan nooqilona ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklar darajasi oshishiga olib keldi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan ushbu

kasalliklar yuqumli bo'lmagan kasalliklarning alohida guruhiga airatilgan. Yuqumli bo'lmagan kasalliklar darajasining oshishi nooqilona ovqatlanish bilan birgalikda vatarli bo'lmagan jismoniy faollik, tamaki iste'mol qilish va alkogolni zararli iste'mol qilish bilan bog'liqdir.

2014 yilda o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari respublika katta yoshdagi aholisining 67.2 foizga yaqini sabzavotlar va mevalarni Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tavsiya etiladigan normadan past iste'mol qilishini, 37 foizi tuz miqdori ortiqcha bo'lgan ovqatni iste'mol qilishini, katta yoshdagi aholining 16.4 foizi esa jismoniy faol emasligini ko'rsatdi. Buning natijasida katta yoshdagi aholining 20.2 foizi ortiqcha vaznga va 33.9 foizi yuqori qon bosimga ega.

Aholi sog'lig'ini saqlash va mustahkamlashga yo'naltirilgan kompleks choratadbirlarni amalga oshirish, kasalliklarning oldini olish, aholi turli guruhlarining tibbiyot fani talablariga muvofiq sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish Konsepsiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

Ouvidagilar O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'lom ovqatlanishini ta'minlashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

1) aholi turli guruhlarining sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, jismoniy faollik hamda alkogolli mahsulotlarni va tamaki mahsulotlarini iste'mol qilishni qisqartirish yo'li bilan kasallikka chalinish va bevaqt vafot etishni kamaytirish;

2) nooqilona ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish va ular tarqalishi darajasini pasaytirish, aholi sog'lom turmush tarzining asosi sifatida sog'lom ovqatlanishga doir keng tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etish va shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan faol foydalangan holda sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilishni kuchaytirish;

3) ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklar tarqalishini kamaytirishga yo'naltirilgan sog'lom ovqatlanish masalalari bo'yicha aholining turli guruhlari uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, sog'lom ovqatlanish sohasida fundamental tadqiqotlarni ustuvor rivojlantirish;

4) jamoalarda tashkil etilgan ovqatlanishni tashkil etishni takomillashtirish, homilador va bola emizuvchi ayollarning, shuningdek 3 yoshgacha bo'lgan bolalarning to'laqonli ovqatlanishini tashkil etish, davolash jarayonining ajralmas qismi sifatida davolash-profilaktika muassasalarida parhyezli (davolash va profilaktik) ovqatlanishni yaxshilash;

5) sifat va xavfsizlikka qo'yiladigan zamonaviy talablarga muvofiq oziq-ovqat xom ashyosining asosiy turlarini mamlakatimizda ishlab chiqarishni kengaytirish, almashtirib bo'lmaydigan komponentlar bilan boyitilgan oziq-ovqat mahsulotlari va bolalar ovqatlanishi uchun ixtisoslashtirilgan mahsulotlar, parhyezli (davolash va profilaktik) oziq-ovqat mahsulotlari va ovqatga biologik aktiv qo'shimchalar ishlab chiqarishni rivojlantirish;

6) oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat xom ashyosiga tegishli bo'lgan texnik reglamentlar va davlat standartlarini ishlab chiqish va qabul qilish;

7) O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan va chet eldan yetkazib beriladigan oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat xom ashyosining sifati ustidan nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish;

8) aholi sog'lig'i ko'rsatkichlari va tarqalgan alimentar-bog'liq holatlar rivojlanishi dinamikasi tahlili asosida ovqatlanish sohasida monitoring dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish.

2015-2020 villar davrida O'zbekiston Respublikasi aholisining sog'lom ovqatlanishini ta'minlash Konsepsiyasi va chora-tadbirlar kompleksi qabul qilingan bo'lib, quyidagi ustuvor vazifalarni hal etishga yo'naltirilgan:

1) nooqilona ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklarning oldini olish va ular tarqalishi darajasini pasaytirish, aholi sog'lom turmush tarzining asosi sifatida sog'lom ovqatlanishga doir keng tushuntirish ishlari olib borilishini tashkil etish va shu jumladan ommaviy axborot vositalaridan faol foydalangan holda sog'lom ovqatlanishni targ'ib qilishni kuchaytirish;

2) ta'lim va tibbiyot muassasalarida ovqatlanishni tashkil etish tizimini yanada tartibga solish maqsadida normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, tashkil etilgan bolalar jamoalari ovqatlanishi rasionini yaxshilash, O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan va chet eldan yetkazib beriladigan oziq-ovqat mahsulotlari va oziq-ovqat xom ashyosi sifatini nazorat qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy etish;

3) oziq-ovqat mahsulotlarini mamlakatimizda ishlab chiqarishni, ayniqsa muhim mikronutriyentlar bilan boyitilgan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirish yo'li bilan aholining sog'lom ovqatlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydigan shart-sharoitlar yaratish, mahalliy xom ashyo asosida oziq-ovqat mahsulotlari yaratish, aholi orasida sog'lom ovqatlanish prinsiplari joriy etilishiga ko'maklashadigan muhitni shakllantirish;

4) aholining turli guruhlari orasida ovqatlanish rasionini va ovqatlanish bilan bog'liq kasalliklar rivojlanishining sabablarini o'rganishga yo'naltirilgan sog'lom ovqatlanish va diyetologiya sohasida fundamental ilmiy tadqiqotlarni ustuvor amalga oshirish.

3 Oziq-ovqat mahsulotlarining sifatiga bo'lgan talablar.

Oishloq xo'jaligining mamlakat oziq-ovqat xavsizligini ta'minlashda asosiy tarmoqlardan biri ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, ushbu yo'nalishda tahlil etilayotgan davrda erishilgan ijobiy natijalarni alohida ta'kidlash joiz. Jumladan, barcha asosiy qishloq xo'jaligi mahsulotlari turlari bo'vicha aholi ion boshiga ishlab chiqarish ko'rsatkichlari miqdor jixatidan o'sgan. Masalan, sabzavotlar 147,2 kg ga. sut yetishtirish 86.6 kg ga va tuxum 69 donaga ko'pavgan.

Oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan me'vordagi ehtivoini aniqlashda mutanosib rasion asosida ovqatlanishni ta'minlash vazifasi faqat me'vordagi kalorivaga ega bo'lgan va har kuni iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlaridan iborat emasligini e'tiborga olish o'ta muhimdir.

To'laonli ovqatlanish ko'p iihatdan uning tarkibiga, iste'mol qilinadigan oziq-ovqat mahsulotlarining insonning normal rivoilanishi va faolivat yuritishi,uning organizmida to'g'ri modda almashinuvi, salomatlikni mustahkamlash, kasalliklarning oldini olish, keksavish jarayonini sekinlashtirish va umrni uzavtirish uchun zarur bo'ladigan to'yimli va sifatli moddalar bilan kerakli darajada ta'minlanishiga bog'liq.

Bu borada ovqat bilan birga o'rnini hvech narsa bosolmavdigan aminokislotalar, vitaminlar, mineral moddalar, mikroelementlar va organizmda o'z-o'zidan hosil bo'lmavdigan boshqa moddalarning ham iste'mol qilinishi inson hayoti uchun eng muhim ahamivatga egadir.

Ana shu foydali moddalar, vitamin va mikroelementlar katta miqdorda faqatgina sabzavotlar, meva va uzum tarkibida bo'ladi va ularning o'rnini boshqa hvech qanday mahsulot bosa olmaydi.

Boshqacha avtganda, inson salomatligi, uning uzoq va barakali umr ko'rishini ta'minlash bilan chambarchas bog'liq ekani, meva va sabzavotlar uning eng muhim tarkibiy qismi bo'lishi lozimligi hеч kimga sir emas. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlari shundan dalolat beradiki, bugungi kunda rivojlanayotgan mamlakatlarda bir kishi uchun tavsiya etilgan kundalik 400 gramm o'rniga juda kam miqdorda - bor-yo'g'i 150-200 gramm meva va sabzavot iste'mol qilinmoqda. Xalqaro dietologlarning tavsiyasiga ko'ra, inson iste'mol qiladigan oziq-ovqatning kamida 50 foizini meva va sabzavotlar tashkil etishi zarur.

Mamlakatda yetishtiriladigan oziq-ovqat ekinlarining ahvoli, istiqboli va turlari, ulardan olinadigan hosilning mazali ta'mi va foydali xususiyatlari, ularning milliy iqtisodiyot va eksportda tutadigan o'rnini, birinchi navbatda, shu davlatning geografik joylashuvi, uning tuproqsharoitiga va shakllangan dehqonchilik madaniyati va saviyasiga, muayyan mahsulotni yetishtirish mahoratiga, bunday mahsulotlarning mahalliy va xorijiy bozorlarda nechog'liq xaridorgir bo'lishiga bog'liq.

Ekspertlarning ma'lumotlariga ko'ra, bizning sharoitimizda yetishtirilgan meva-sabzavotlar bebaho iste'mol xususiyatlari, ya'ni tarkibida tabiiy shakar, amino va organik kislotalar, salomatlik uchun eng muhim bo'lgan mikroelementlar va oziq-ovqat rasionida o'rnini almashtirib bo'lmaydigan turli biologik moddalarga bovliligi bilan boshqa mintaqalarda yetishtirilgan ana shunday mahsulotlardan sezilarli ravishda yuqori turadi.

O'zbekistonda yetishtiriladigan meva va sabzavotlarning faqat ularga xos bo'lgan xususiyatlari va to'vimlilik darajasi haqida gapirganda, shuni qayd etish kerakki, mamlakatimiz seleksionerlari sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkaning 170 dan ortiq navini, meva va rezavor ekinlar va uzunning 175 ta yangi navini yaratdilar.

Mavzu bo'yicha savollar:

1. Tibbiy me'yorlar asosida oziq-ovqat bilan ta'minlanish darajalariga tavsif bering.
2. Oziq-ovqat mahsulotlarining xavfsizligi nimalarni taqozo qiladi?
3. Oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy qiymati inson salomatligi uchun qanday ahamiyatga ega?